



**2024**  
**№ 6**

**ISSN 3030-380X**

**TA'LIMDA**  
**ISTIQBOLLI**  
**IZLANISHLAR**

XALQARO ILMIY METODIK JURNAL

МЕЖДУНАРОДНЫЙ НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ ЖУРНАЛ

INTERNATIONAL SCIENTIFIC METHODOLOGICAL JOURNAL

# **TA'LIMDA ISTIQBOLLI IZLANISHLAR**

Xalqaro ilmiy-metodik jurnal

# **ПЕРСПЕКТИВНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ В ОБРАЗОВАНИИ**

Международный научно-методический журнал

# **PROSPECTIVE RESEARCH IN EDUCATION**

International Scientific Methodological Journal

**№ 6 2024**

**Jurnal O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi OAK Rayosatining 2024 - yil 7 - iyundagi 355-son qarori bilan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha dissertatsiya ishlari natijalari yuzasidan ilmiy maqolalar chop etilishi lozim bo'lgan zaruriy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.**

|                                             |                                                                                                                                                |     |
|---------------------------------------------|------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| <b>Zohidjon o'g'li</b>                      | rivojlantirishning umumiy tendensiyalari va qonuniyatlari                                                                                      | 238 |
| <b>Aslanova Sanobar Sulaymanovna</b>        | Boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish metodologiyasi                                                      | 246 |
| <b>Xamrayeva Diyora Burxon qizi</b>         | Akmeologik yondashuv asosida pedagoglarning innovatsion faoliyatini rivojlantirishga yo'naltirilgan texnologiyalarni tadbiq etish mexanizmlari | 250 |
| <b>Teshayev Azizbek To'ynor o'g'li</b>      | "Ta'lim 2030" konsepsiyasida yoshlarning ijtimoiy faol fuqarolik kompetentligini rivojlantirish masalalari                                     | 254 |
| <b>Raxmanova Vazira Kaimovna</b>            | Boshlang'ich sinf o'qituvchilarining rus tilida so'zlashuvini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish                                    | 260 |
| <b>Musayeva Amina Karamatovna</b>           | Innovatsion texnologiyalar asosida talabalarda kommunikativ kompetentlikni rivojlantirish metodikasining takomillashtirilgan modeli            | 264 |
| <b>Rahimboyeva Dilnoza Qahramon qizi</b>    | Ona tili darslarida matn ustida ishlashni rivojlantirish pedagogik muammo sifatida                                                             | 271 |
| <b>Boymurodova Nodirabegim Bahodir qizi</b> | Ona tili darslarida lingvistik tushunchalarni o'rgatishda hayotiy ko'nikmalarni tarkib toptirish                                               | 278 |
| <b>Farxodova Dilnoza Quadrat qizi</b>       | Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kreativ qobiliyatlarini rivojlantirish metodikasi muammo sifatida                                | 282 |
| <b>Otanazarova Mohirahon Xamidbekovna</b>   | Raqamli texnologiyalarni bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini tayyorlash jarayoniga tatbiq etish                                        | 286 |
| <b>Pulatova Dildora Turgunovna</b>          | O'qituvchining kasbiy rivojlanishi omillari                                                                                                    | 290 |
| <b>Doniyorov Latifjon Saloxiddinovich</b>   | O'qituvchilarning fizika faniga bo'lgan qiziqishini oshirishda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish                                         | 295 |
| <b>FALSAFA</b>                              |                                                                                                                                                |     |
| <b>Sharipov Abdukhakimjon Ziyotdinovich</b> | O'zbekiston ma'naviy taraqqiyot strategiyasi                                                                                                   | 301 |
| <b>Shirinov Anvar Qanoatovich</b>           | Inson taraqqiyoti dinamikasida inson kapitalining ijtimoiy-falsafiy asoslari                                                                   | 307 |
| <b>Turdiyev Bexruz Sobirovich</b>           | Jamiyat ideosferasining barqaror rivojlanish maqsadlari bilan integratsiyasi                                                                   | 312 |
| <b>IQTISODIYOT</b>                          |                                                                                                                                                |     |
| <b>Davlatov Suxrob Sayitjonovich</b>        | Oliy ta'lim muassasalari raqobatbardoshligini ta'minlashda ta'lim xizmatlari sifatini oshirish                                                 | 317 |
| <b>Kadirova Maral Matyakubovna</b>          | O'zbekistonda agrobiznesni xorijiy davlatlar tajribasi asosida rivojlantirish yo'llari                                                         | 322 |

**Turdiyev Bexruz Sobirovich**

Buxoro davlat universiteti, "Ijtimoiy-siyosiy fanlar" kafedrası dotsenti  
b.s.turdiyev@buxdu.uz

## JAMIYAT IDEOSFERASINING BARQAROR RIVOJLANISH MAQSADLARI BILAN INTEGRATSIYASI

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada jamiyat ideosferasining BMTning Barqaror Rivojlanish Maqsadlari (BRM) bilan uyg'unligi ko'rib chiqilib, undagi ustuvor g'oyalarning falsafiy mazmun-mohiyati, ularning qay darajada ijtimoiy progressni qo'llab-quvvatlashi tahlil etilgan. Shuningdek, maqolada BRMning yurtimizda tadbiq etilishi sohasidagi islohotlar va ularning dastlabki natijalari tadqiq etilgan.

**Kalit so'zlar:** jamiyat, strategiya, konsepsiya, ideosfera, qadriyat, taraqqiyot, gender tenglik, modernizatsiya, innovatsiya, ta'lim, tarbiya, siyosat.

**Аннотация:** В данной статье рассматривается совместимость понятия идеосферы общества с Целями устойчивого развития (ЦУР) ООН, а также анализируется философское содержание приоритетных идей и их степень поддержания социального прогресса. Также в статье рассматриваются реформы в сфере внедрения ЦУР в нашей стране и их предварительные результаты.

**Ключевые слова:** общество, стратегия, концепция, идеосфера, ценности, развитие, гендерное равенство, модернизация, инновации, образование, воспитание, политика

**Annotation:** This article examines the compatibility of the society's ideosphere with the UN's Sustainable Development Goals (SDGs), analyzes the philosophical content of the priority ideas in it, and to what extent they support social progress. In addition, the article examines reforms in the field of implementation of SDGs in our country and their preliminary results.

**Key words:** society, strategy, concept, ideosphere, value, development, gender equality, modernization, innovation, education, upbringing, politics.

**Kirish.** 2015 yil 25 sentyabr jahonda insoniyat taraqqiyoti oldida turgan qashshoqlik, tengsizlik va iqlim o'zgarishi bilan bog'liq bo'lgan turli muammolarning yechimini topish maqsadida barcha mamlakatlarning yetakchilari "Rio+20" konferensiyasida 2030 yilgacha bo'lgan davrgacha mo'ljallangan barqaror taraqqiyot dasturini qabul qilishga kelishib olingan edi. Shundan so'ng, ushbu talablardan aniq harakatlarga o'tish maqsadida BMTning Nyu-Yorkdagi bosh qarorgohida yangi taraqqiyot dasturi 2015 yilning sentyabrida BMTning tarixiy sammitida, Barqaror rivojlanish maqsadlari (BRM) rasman qabul qilindi [1].

Mazkur Barqaror taraqqiyot 2030 dasturi yangi 17 ta Barqaror Rivojlanish Maqsadlari (BRM)dan, yoki Global maqsadlardan tashkil topgan bo'lib, keyingi 15 yillik davrdagi umumjahon siyosati va sarmoyalar yo'nalishlarini belgilab beruvchi dasturi hisoblanib, unda dunyo mamlakatlarining yetakchilari qashshoqlikka – dunyoning barcha nuqtalarida, batamom – barham berilishi nazarda tutilgan [2]. Bularning barchasi 2030 yilgacha erishilishi lozim bo'lgan 17 ta BRM va ulardan kelib chiqqan 169 vazifalarni amalga oshirishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan [3].

Tadqiqotning obyektini mamlakatimizda BMTning Barqaror Rivojlanish Maqsadlari (BRM)ni amalga oshirish sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar va ularning natijalari tashkil etadi. Tadqiqot ishida analiz va sintez, retrospektiv, qiyosiy tahlil, umumlashtirish, dialektik va sinergetik kabi ilmiy bilish usullaridan foydalanilgan.

**Muhokama va natijalar.** 2030 yilga qadar a'zo davlatlarning bu maqsadlarni amalga oshirish yo'lida olib borgan faoliyati natijasida, xalqlar va davlatlarning rivojlanish darajalari, hayot sifatining ko'rsatkichlari ko'tarilishiga xizmat qiladi. Har qaysi davlatda, jumladan, yurtimizda ham davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev va hukumatimiz tomonidan qabul qilingan maxsus farmonlar va qarorlar orqali bu maqsadlarga erishish uchun keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda.

1-maqсад. O'ta qashshoqlikka barham berish. Bugun jahonda 800 milliondan ortiq kishi avvalgidek o'ta qashshoqlikda yashamoqda va eng zarur hayotiy ehtiyojlarni, masalan, sog'likni saqlash, ta'lim, suv zaxiralaridan foydalanish va sanitariyaga bo'lgan ehtiyojlarni qondirishda qiyinchiliklarga duch kelmoqda [4]. Yurtimizda kambag'allikka qarshi kurashish maqsadida "Islohot – islohot uchun emas, avvalo inson, uning manfaatlarini uchun" degan tamoyil asosida inson va uning manfaatlariga e'tibor masalasi davlat ijtimoiy-iqtisodiy siyosatining markaziga qo'yildi. Shu maqsadda, fuqarolarni ijtimoiy muhofaza qilish, jamiyatning himoyaga muhtoj qatlamlarini, yetim va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni, imkoniyati cheklangan shaxslarni qo'llab-quvvatlash bo'yicha izchil va manzilli davlat siyosatini amalga oshirish masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda.

2-maqсад. Ochlikka barham berish. BMT ma'lumotlariga ko'ra, dunyoda 795 millionga yaqin kishi (sayyoramiz aholisining har bir to'qqizinchi vakili) to'yib ovqat yemaydi. BMTning oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti (FAO) ma'lumotlariga ko'ra, O'zbekistonda to'yib ovqatlanmaslikning tarqalishi 2017-2019-yillarda 2,6 foizni tashkil etdi. Dunyo mamlakatlarining oziq-ovqat xavfsizligi global indeksini 2020-yil holatiga aniqlaganda 113 ta davlat ichida O'zbekiston 83-o'rinni egallab 50,9 ko'rsatkichiga ega bo'lgan [5].

3-maqсад. Sog'lik va farovonlik. Sog'lom turmush tarzini ta'minlash va barcha yoshdagi kishilarning farovonligiga ko'maklashish. Sog'liqni saqlash va O'zbekiston Respublikasi aholisining sog'lom turmush tarzi uchun sharoit yaratish mamlakat hukumati oldida turgan muhim vazifalardan biridir. Sog'liqni saqlash sohasidagi, ayniqsa, rivojlanish darajasi o'xshash mamlakatlar bilan taqqoslaganda, nisbatan yaxshi ko'rsatkichlar buning dalilidir.

4-maqсад. Sifatli ta'lim. Ta'lim - taraqqiyot bosqichidagi eng muhim tizim. Jamiki o'zgarishlar, yangilanishlar bevosita ta'lim rivoji bilan bog'liq. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev iborasi bilan aytganda, "Biz ta'lim va tarbiya tizimining barcha bo'g'inlari faoliyatini bugungi zamon talablari asosida takomillashtirishni o'zimizning birinchi darajali vazifamiz deb bilamiz" [6]. Jumladan, respublikamizda yosh avlod ongi va qalbida mustaqil hayot uchun muhim ijtimoiy ko'nikma va fazilatlarni o'z yoshiga mos, bosqichma-bosqich shakllantirish asosida yuksak fazilatli, barkamol avlodni voyaga yetkazishda Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 31 dekabrda "Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorining qabul qilinishi mamlakatimiz ma'naviy hayotida demokratik yangiliklardan biri bo'ldi. Mazkur konsepsiya to'rt bosqichni o'z ichiga qamrab olib, "yoshlarda Vatanga sadoqat, tadbirkorlik, irodalilik, mafkuraviy immunitet, mehr-oqibatlilik, mas'uliyatlilik, bag'rikenglik, huquqiy madaniyat, innovatsion fikrlash, mehnatsevarlik kabi muhim fazilatlarni bolalikdan boshlab bosqichma-bosqich shakllantirish"[7]ni nazarda tutadi. "Ta'lim to'g'risida"gi yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Qonuni xalqimizni yangicha fikrlash va ishlashga safarbar etishda dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

5-maqсад. Gender tengligi. Gender tengligini ta'minlash, barcha ayol va qiz bolalarning huquq va imkoniyatlarini kengaytirish. Hozirgi kunda rivojlanayotgan mamlakatlarning deyarli uchdan ikki qismi boshlang'ich ta'limda gender tengligiga erishgan. Bugun erkak va ayollarning birgalikda ta'lim olishi va ishlashi jarayonida jamiyatda o'zaro hurmat va ma'naviy sog'lom munosabat qurishlariga asos bo'ladi. "2014 yil statistik ma'lumotlariga ko'ra, jahonda 143 ta mamlakat o'z konstitutsiyasida ayollar va erkaklar teng huquqli ekanligini kafolatlagan bo'lsa, ammo 52 mamlakat hanzugacha buni o'z Konstitutsiyasiga kiritmagan" [8].

6-maqсад. Toza suv va sanitariya. Bugungi kunda O'zbekiston Barqaror rivojlanish maqsadlariga muvofiq, toza suv tizimini isloh qilish, suv resurslaridan oqilona foydalanish sohasida zamonaviy texnologiyalarni qo'llash bilan bog'liq murakkab masalalarning holati va barqaror yechimiga erishish yo'lidan bormoqda. Bu borada, prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning 2023 yil 1 apreldagi "Suv resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish bo'yicha kechiktirib bo'lmaydigan chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-107-sonli qaroriga muvofiq, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirishda suvni tejaydigan texnologiyalarni joriy etishni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari belgilandi.

7-maqсад. Arzon va toza energiya. O'zbekiston ulkan foydali qazilmalarga, shu jumladan, uglevodorod zaxiralariga ega. British Petroleum tahlillariga asosan O'zbekiston tabiiy gaz ishlab chiqarish bo'yicha dunyoda 17-o'rinni, zaxiralari bo'yicha esa 24-o'rinni egallaydi. Biroq, resurslar tezda kamayib bormoqda va hozirgi ishlab chiqarish sur'atlarida zaxiralar 2035-yilga qadar tugaydi. 2030-yilga kelib, O'zbekiston hukumati iqtisodiyotning energiya sarfini qariyb 50 foizga kamaytirishga, shuningdek, hamma uchun arzon, ishonchli, barqaror va zamonaviy energiya manbalaridan foydalanishni ta'minlashga intilmoqda.

8-maqсад. Munosib ish o'rinlari va iqtisodiy o'sish. Bugungi kunda mamlakatimizda aholi bandligini ta'minlash, yangi ish o'rinlarini tashkil etish bo'yicha aniq tizim asosida kompleks ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasining 2020 yil 20 oktyabrda "Aholi bandligi to'g'risida"gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 28 apreldagi "2021 yilda yangi ish o'rinlarini tashkil etish va aholi bandligiga ko'maklashish bo'yicha davlat dasturi to'g'risida"gi qarori qabul qilindi. Shuningdek, 2019 yil 3 oktyabrdagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-4472-sonli qaroriga ko'ra "O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi" tashkil etildi. Mazkur agentlik milliy kadrlar zaxirasini boshqarish, Davlat fuqarolik xizmati lavozimlarining davlat reyestrini yuritish, shuningdek, davlat xizmatchilari vakant lavozimlarining yagona ochiq portalini tashkil etish va yuritishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

9-maqсад. Sanoatlashtirish, innovatsiya va infratuzilma. Harakatlar strategiyasining hayotga tadbiiq etilishi mamlakatimizda sanoat tarmog'ini modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlash va sohani rivojlantirishga yo'l ochib berdi. Natijada, mamlakatimiz sanoat rivoji milliy iqtisodiyotimizni liberallashuviga olib kelib, kichik biznes rivojidadagi to'siqlarning bartaraf etilishiga, xorijdagi yirik sanoat korxonalari bilan o'zaro manfaatli iqtisodiy aloqalarni mustahkamlash, mamlakatimiz aholisi turmush darajasini oshirishga qaratilgan iqtisodiy islohotlarning yangi davrini boshlab berdi.

10-maqсад. Tengsizlikni kamaytirish. Mustaqillik yillarida jamiyatning keskin ijtimoiy tabaqalanishini oldini olish maqsadida O'zbekistonda aholining ayrim qatlamlari daromadlarining tabaqalanishini maqbul darajada ushlab turish bo'yicha chora-tadbirlar ko'rildi. Mamlakatimiz rivojlanish strategiyasida aholi, jamiyat va hududlar o'rtasidagi iqtisodiy tengsizlikni qisqartirish, ularni bir maromda rivojlantirish yuzasidan samarali islohotlar olib borilmoqda. O'zbekistonda ko'rilayotgan chora-tadbirlarning natijalari aholi daromadlarini tabaqalashtirishning optimal darajada izchil pasayishi va barqarorlashuviga yordam berdi. Shunday qilib, aholining eng kam ta'minlangan qatlamlarining 10 foiz daromadlari nisbati – pasayish koeffitsiyenti 2001-yildagi 21,1 martadan 2020-yilda 6,9 barobarga kamaydi [9].

11-maqсад. Barqaror shaharlar va aholi yashash joylari. O'zbekistonda Harakatlar strategiyasining dastlabki bosqichlaridan aholining turmush farovonligi hamda hayoti sifatini ta'minlash yuzasidan katta yaratuvchanlik ishlari amalga oshirildi. Bevosita davlat rahbarining tashabbusi bilan ko'p millatli O'zbekiston xalqining talab va istaklarini inobatga olib, 2017 yilda imtiyozli ipoteka kreditlari asosida arzon uy-joylar qurish loyihasini amalga oshirishga kirishildi. Shu bilan birga, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 21 oktyabrdagi "2017-2021 yillarda qishloq joylarda yangilangan namunaviy loyihalar bo'yicha arzon uy-joylar qurish dasturi to'g'risida"gi PQ-2639 sonli Qarori, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 22 noyabrdagi "2017-2020 yillarda shaharlarda arzon ko'p kvartirali uylarni qurish va rekonstruksiya qilish dasturini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2660 sonli Qarori va mazkur qarorlarga doir qator hujjatlar bu sohadagi ishlar samaradorligini oshirishga xizmat qildi.

12-maqсад. Mas'uliyatli iste'mol va ishlab chiqarish. Yurtimizda yiliga 7 million tonna maishiy chiqindi hosil bo'lyapti. Shundan faqat 2 million tonnadan ziyodi qayta ishlanadi. Qolgan chiqindilardan paydo bo'layotgan issiqxona gazi va sizot suvlar tabiatga zarar yetkazyapti. Ohangarondagi eski poligonda chiqindidan 15 Megavatt elektr energiyasi olish loyihasi boshlangan. Davlatimiz rahbari bu tajribani kengaytirib, boshqa poligonlarda ham chiqindini qayta ishlash va muqobil energiya olishni yo'lga qo'yish zarurligini ta'kidladi.

13-maqсад. Iqlim o'zgarishiga qarshi kurashish. Bugungi kunda iqlim muammolari barqaror rivojlanish yo'lida eng asosiy tahdidga aylanib ulgurdi. Bu xavf-xatarlar hatto dunyo geosiyosiy arxitekturasiga ham ta'sir ko'rsatmoqda. Iqlim o'zgarishining salbiy oqibatlari Orol fojiasi tufayli Markaziy Osiyoda, ayniqsa, jiddiy sezilmoqda. Mintaqamizda havo haroratining oshishi jahondagi o'rtacha ko'rsatkichdan ikki baravar ko'pdir. Favqulodda issiq kunlar soni 2 marta ortdi, muzliklar maydonining uchdan bir qismi yo'qoldi.

14-maqсад. Dengiz ekotizimlarini asrash. Barqaror taraqqiyot yo'lida okeanlar, dengizlar va dengiz zaxiralarini asrash va ulardan oqilona foydalanish.

15-maqсад. Quruqlikdagi ekotizimlarni asrash. O'zbekiston Respublikasi qurg'oqchil iqlimi bo'lgan mamlakat bo'lib, umumiy yer maydoni qariyb 44,9 million gektarni tashkil etadi. U asosan tog'lar va tekisliklardan iborat bo'lib, shu jumladan ko'proq darajada cho'l va yarim cho'l hududlar va kamroq darajada intensiv sug'oriladigan vodiylarda haydaladigan yerlarni tashkil etadi. Yerdan foydalanish islohoti asosan sug'oriladigan dehqonchilikka qaratilgan bo'lib, barcha hududlarning qariyb 10 foizini egallaydi.

16-maqсад. Tinchlik, adolat va samarali boshqaruv. Mamlakatimiz tashqi siyosiy faoliyatining ustuvor yo'nalishi Markaziy Osiyo mintaqasi hisoblanib, davlatimiz barqarorligi va hayotiy manfaatlari bu mintaq bilan uzviy aloqadordir. O'zbekistonning Markaziy Osiyo siyosatiga oid asosiy yo'nalishlari – mintaqada tinchlik va barqarorlikni ta'minlashdan, mintaqaviy xavfsizlikning eng muhim muammolarini hal etishdan, barcha qo'shni mamlakatlar bilan o'zaro yaqin, manfaatli va amaliy hamkorlikni yo'lga qo'yishdan iboratdir. Mamlakatimizda adolatli va samarali davlat boshqaruvi bu boshqaruv organlarining ochiqligi va hisobdorligi, ularning faoliyati ustidan jamoat va parlament nazoratining o'rnatilganli, mansabdor shaxslarning faoliyatini baholash tizimining joriy etilganligi, kadrlarni tanlash tizimida shaffoflikning yo'lga qo'yilganligi BRMning 16-maqсадiga to'liq mos keladi.

17-maqсад. Barqaror rivojlanish yo'lida hamkorlik. O'zbekiston Barqaror rivojlanish maqsadlarini amalga oshirishda faol ishtirok etmoqda. BMT agentliklari 1993-yildan buyon mamlakatni rivojlantirish dasturlarini amalga oshirishda hukumatga yordam berib kelmoqda. Barqaror rivojlanish maqsadlari respublika uchun alohida ahamiyatga ega, chunki Birlashgan Millatlar Tashkiloti tarixida birinchi marta keng qamrovli global maslahatlashuv jarayonida 2030-yilgacha rivojlanishning yagona ko'rinishi ishlab chiqilgan. Ushbu dastur Birlashgan Millatlar Tashkilotiga a'zo bo'lgan 193-davlat tomonidan ma'qullangan va, shuningdek, 2030-yilgacha dunyoning umumiy tasavvurini ifodalaydi.

**Xulosa.** Xulosa qilib aytganda, jamiyat ideosferasi va barqaror rivojlanish maqsadlari o'rtasidagi integratsiya, maqsadlarning to'liq amalga oshirilishi uchun zarur bo'lgan strategik muvofiqlikni ta'minlaydi. Buning uchun ideologik asoslarni yangilash, jamiyatning barcha qatlamlari bilan samarali muloqot o'rnatish va turli darajadagi siyosatlarni moslashtirish zarur. Jamiyatning ideologik taraqqiyoti va barqaror rivojlanish maqsadlari orasida muvofiqlikni saqlash, uzoq muddatli barqarorlikni ta'minlashga xizmat qiladi. Shu bilan birga, ideologik va rivojlanish maqsadlari o'rtasidagi integratsiyani kuchaytirish, jamiyatning barcha qatlamlari uchun to'g'ri va samarali siyosatlarni ishlab chiqish, va innovatsion yondashuvlarni qo'llash orqali barqaror rivojlanishning yanada yaxshi natijalariga erishish mumkin. Maqola, ushbu yo'nalishda amalga oshirilishi lozim bo'lgan amaliy choralarni ko'rsatib beradi va kelgusida bu boradagi izlanishlar va tadqiqotlarga yangi istiqbollar ochadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. Mirziyoyev Sh. Milliy taraqqiyot va yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. 1-jild. –T.: "O'zbekiston" NMIU. 2017, -B.124.
2. About the Sustainable Development Goals // <https://www.un.org/sustainabledevelopment/sustainable-development-goals/>
3. Barqaror rivojlanish maqsadlari // <http://www.un.uz/ozb/pages/display/sdgs>
4. Transforming our world: the 2030 Agenda for Sustainable Development // Resolution adopted by the General Assembly on 25 September 2015.

5. Ochlikka barham berish // <https://nsdg.stat.uz/uz/goal/5>
6. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 31-dekabrdagi "Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora – tadbirlari to'g'risida"gi 1059-sonli qarori // <https://lex.uz/docs/4676839>
7. Goal 5: Achieve gender equality and empower all women and girls // <https://www.un.org/sustainable development/gender-equality/>
8. Tengsizlikni kamaytirish // <https://nsdg.stat.uz/uz/goal/13>